

Xizmat Ko'rsatish Sohasida Innovatsion Infratuzilma Va Tarmoqlarga Jalb Qilingan Investitsiyalar Hajmi Tahlili

G'.Ziyodullayev Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Sh. Keldiyorov Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

O. N. Xaitov Sharof Rashidov


Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

Anotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadi iqtisodiy salohiyatni oshirish, xizmatlar sifatini ta'minlash, aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish va taqdim qilinayotgan xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2022-yilda 33,7%ni tashkil qilgan holda, bu sohada iqtisodiyotning real sektoriga nisbatan jadal sur'atlar bilan ta'minlash va barqaror rivojlanishga ega bo'lish bo'yicha yuqori salohiyatga ega soha hisoblanadi. Shunga ko'ra, jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlarini hisobga olgan holda, milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashishi hamda aholi farovonligini oshirish xizmatlar bozorining rivojlanishiga chambarchas bog'liq.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo'jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg'armalari.

Yurtimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadi iqtisodiy salohiyatni oshirish, xizmatlar sifatini ta'minlash, aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish va taqdim qilinayotgan xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2022-yilda 33,7%ni tashkil qilgan holda, bu sohada iqtisodiyotning real sektoriga nisbatan jadal sur'atlar bilan ta'minlash va barqaror rivojlanishga ega bo'lish bo'yicha yuqori salohiyatga ega soha hisoblanadi. Shunga ko'ra, jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlarini hisobga olgan holda, milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashishi hamda aholi farovonligini oshirish xizmatlar bozorining rivojlanishiga chambarchas bog'liq.

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ishlab chiqarish sohasida innovatsiyalarni yaratish va boshqarishdan farqli ravishda o'ziga xos xususiyatlariga ega. Birinchidan, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarning katta qismi patentlanmaydi, bu esa innovatsiyalarning hayotiylik davrini jiddiy ravishda qisqartiradi. Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar bo'yicha natijalarning yuqori noaniqligi xosdir. Uchinchidan, innovatsiyalar samaradorligini baholash yetarlicha murakkabdir. To'rtinchidan, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarni joriy qilishga kompleks yondashuv zarur.




1-rasm. O‘zbekistonda innovatsion infratuzilmalar soni⁶⁷

1- rasmda mamlakatimizda innovatsion infratuzilmalar soni keltirilgan bo‘lib, 2018-yilda innovatsion infratuzilmalar bir donani tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda respublikamizning jami hududlari dagi innovatsion infratuzilmalarni qo‘shib hisoblaganda 19 taga yetgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy funksiyani ham bajaradi. Bu esa shaxsiy masalalarga daxldor ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab olish imkonini beradi. Intensiv rivojlanish yo‘li bo‘yicha uzoq muddatli iqtisodiy va madaniy o‘shni innovatsion faoliyatsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalarning asosiy mezonlari bo‘lib, yangilik, amaliy ahamiyati va realizatsiya qilish imkoniyatlari (xizmatlarga iste‘molchilar ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkoniyatlari) hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion jarayonlarning elementlari sifatida innovatsion g‘oyaning yaratilishi, innovatsiyalar marketingi, innovatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash, innovatsiyalarni o‘zlashtirish, tijoratlashtirish va kelgusidagi harakatlanishi namoyon bo‘ladi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2018-2022-yillarda jalb qilingan investitsiyalar yo‘nalishlari⁶⁸, %


Respublikamizda 2018-2022-yillarda eng ko'p qishloq xo'jaligiga investitsiyalar (17,0%) yo'naltirilgan bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 2,2%ni tashkil qilgan (2-rasm).

Servis tashkilotlarida innovatsiyalarning bir qator tasnifiy belgilarini ajratish mumkin. Uning obyekti o'zgarishiga bog'liq holda quyidagi turdagi innovatsiyalarni ajratish mumkin:

- texnik – yangi turdagi asbob-uskunalar, qurilmalar, jihozlar hamda xizmat ko'rsatishda mehnatning texnik va texnologik usullarini joriy etish bilan bog'liq;
- tashkiliy-texnologik – xizmatlarning yangi turlari, xizmat ko'rsatishning yanada samarali shakllari bilan bog'liq;
- boshqaruv – menejment usullari va shakllaridan foydalangan holda tashkilotning ichki va tashqi aloqalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan;

kompleks – bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatish faoliyatining turli jihatlarini va tomonlarini o'z ichiga qamrab olgan.

O'z rivojlanishida barcha tizimlar ularda sodir bo'ladigan jarayonlarning keskin sifat o'zgarishiga (bifurkatsiyasiga) va umuman tashkilotning transformatsiyalashishiga olib keladigan chegara no'qtalaridan o'tadi. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish zarurati bozor va chuqur raqobat hamda texnologiyalarning tez o'zgarishi va eski xizmat ko'rsatish usullari qabul qilinishi mumkin bo'lmagan yangi avlod uskunalarning paydo bo'lishi kabi omillar bilan bog'liq.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda innovatsiyalar joriy etilgan sohalar⁶⁹

O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda jami joriy qilingan innovatsiyalarning 1,1%i ta'limni rivojlantirish, 2,4%i axborot va aloqa sohasiga yo'naltirilgan. Bu sohalar hozirgi kunda xizmat ko'rsatishning drayver sohalaridan hisoblanadi (3-rasm).

Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatdosh ustunliklari, avvalambor, keng turdagi xizmatlarni taqdim etishning yuqori texnik va barqaror mexanizmi, iste'molchi muammosini aniqlash va uni samarali hal etish hamda sifatning yaxlitligini ta'minlashdan iborat.

Ma'lumki, xizmat ko'rsatish korxonalarining faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish barcha sohalarda sodir bo'lishi mumkin. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiyalar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlarning uchta asosiy guruhi mavjud:

- 1) endogen – tashqi muhitdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan;
- 2) ekzogen – korxonaning xizmat ko'rsatish sohasidagi funksiyalarini saqlash yoki o'zgartirish bilan ishlash jarayonida uning ehtiyojlari bilan bog'liq;
- 3) refleks – korxonaning tashqi muhitdagi faoliyati natijalariga ko'ra yuzaga keladi va “teskari aloqa” tufayli ichki o'zgarishlarni rag'batlantiradi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalarga zamonaviy yondashuv tobora ko'proq innovatsiyalarni jarayon sifatida ko'rib chiqishga asoslanmoqda. Asosiy e'tibor yangilanish va doimiy takomillashtirish jarayoniga qaratilgan. Mijoz mavhum xizmat uchun emas, balki uni taqdim etishning muayyan jarayoni uchun haq to'laydi. Ushbu jarayonlar ijrochini mijozning motivlari haqidagi bilimidan kelib chiqadi va u xizmat ko'rsatishga bag'ishlashga tayyor bo'lgan vaqtga to'g'ri kelishi kerak. Xizmat ko'rsatish korxonalarining rqqobatga dosh berishi va uning gullab-yashnashi qiymat yaratish jarayonining natijasi bilan uzviy bog'liq. Bunga erishish uchun korxonada innovatsion strategiyani ishlab chiqishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ахмеджанов А.Р. Хизмат кўрсатиш корхоналарида иқтисодий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш. Дисс. Иқтисодиёт фанларидан PhD. – Самарқанд: СамИСИ, 2021. 30-31-б.
2. Solow R We'd Better Out // New York Revier of Books. 1987. July 12, - P. 36.
3. Алексеева П.О.Механизм совершенствования управления предприятиями сферы услуг. / Дисс. канд. экон. наук. – Санкт-Петербург,2015. – С. 82.
4. Манба: Самарқанд вилояти Давлат статистика Бош бошқармасимаълумотлари.
5. www.stat.uz